

№ 8 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 8 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шоҳида Зайнине вна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон журнали
1368-сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал:

https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Воҳидова Комила Абдуллозизовна</i>	
“ЭЛ БАЙРОФИ” ГАЗЕТАСИ ҲАҚИДА	11-17
<i>Сулайманов Саламат Арапбаевич</i>	
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МУХТОР ВИЛОЯТИДА ҚУРУҚЛИК ВА СУВ ТРАНСПОРТИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР (1924-1932 ЙЙ)	18-24
<i>Raupov Холмамат</i>	
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА УРАН КОНЛАРИНИ ЎЗЛАШТИРИШ ТАРИХИ	25-32
<i>Мажидов Анвар Сиражович</i>	
ИМПЕРИЯ МУСТАМЛАКАЧИЛИК СИЁСАТИНИГ ТУРКИСТОН ТУБ ХАЛҚЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА ФУҚАРОЛИК АҲВОЛИГА ТАЪСИРИ (СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА)	33-40
<i>Begamatova Nasiba Xolmurzayevna</i>	
FERMER XO'JALIKLARI VA KLASTER TIZIMI UCHUN O'RTA MA'LUMOTLI MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH TIZIMIDAGI YUTUQLAR VA MUAMMOLAR (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	41-48
<i>Алланазаров Мурот Мирзаевич</i>	
БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ НОЗИРЛАР ШЎРОСИ ВА МИЛЛИЙ РАҲБАР ХОДИМЛАР ФАОЛИЯТИ ХУСУСИДА	49-54
<i>Ismoilova Feruza Ibragimovna</i>	
URUSH YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN VA MADANIYAT SOHALARIDAGI XIZMATLARI	55-59
<i>Tursunov Xurshid Nasriddinovich</i>	
O'ZBEKİSTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI	60-64

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Yuldasheva Gulnoza Abdinabiyevna</i>	
THE ROLE OF THE DIGITAL ECONOMY IN MODELING THE FINANCIAL ACTIVITIES OF ENTERPRISES	65-70
<i>Oromidinov Muzaffar Pardabayevich</i>	
DIRECTIONS FOR IMPROVING INTERNAL AUDIT IN COMMERCIAL BANKS	71-75
<i>Худайназарова Дилором Хайруллаевна</i>	
ТҮҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	76-84

<i>To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich, Jo'rayev Sirojiddin Muxiddin o'g'li</i>	
КО'ЧХМАС МУЛКНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШДА ХОРИЙИ ДАВЛАТЛАРДА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ИСЛОХОТЛАР	85-92
<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich</i>	
МИНТАҚАДА ХИЗМАТ ТУРЛАРИДАН САМАРАЛИ РИВОЈЛАНТИРИШ ЙО'НАЛИШЛАРИ	93-98
<i>Turobov Sherzod Alisherovich</i>	
О'ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASIDA UY XO'JALIKLARI TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI	99-105
<i>Шамсиев Нодир Муратович</i>	
МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ ПРИ АНАЛИЗЕ РЕЙТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ИХ КАЧЕСТВЕННОЕ ОПИСАНИЕ	106-110
<i>Zaripova Moxira Zarip qizi</i>	
AGRAR SOHAGA XORIJIIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	111-114
<i>Узайдуллаев Шерзод Шукуруллаевич</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН ИНФРАТУЗИЛМАНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ОМИЛЛАРИ	115-121
<i>Atabayeva Karomat Rajabovna, Rajabova Maftuna Farhod qizi</i>	
О'ЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМ SOHASINING RIVOJLANISHI VA TAHLILI	122-127
<i>Жумаева Мухлиса Абдуғани қизи</i>	
МАМЛАКАТДА АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	128-137
<i>Камалов Акмал Сайдакбарович, Саматов Гаффор Аллақулович</i>	
ГЕОИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАР ШАРОИТИДА ТРАНСПОРТ ЛОЙИҲАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШГА БЎЛГАН ЁНДАШУВЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ	138-150
<i>Мамадиёрөв Олимжон Умаровиҷ</i>	
ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИ ТАЪМИНЛАШ НАЗАРИЯЛАРИ ЭВОЛЮЦИЯСИ	151-158
<i>Раббимов Жаҳонгир Эшбоевиҷ</i>	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ОПЕРАЦИОН РИСКЛАРНИНГ МОҲИЯТИ, УЛАРНИНГ ЮЗАГА КЕЛИШ САБАБЛАРИ	159-164
<i>Кулибоев Азамат Шоназаровиҷ</i>	
ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ	165-174

<i>Гадоев Сўҳроб Жумакулович</i>	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ КРЕДИТИНИНГ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ	175-181
<i>Бекжанов Дилмурад Йўлдашович</i>	
ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ АСОСИДА ТУРИСТИК ДЕСТИНАЦИОН МЕНЕЖМЕНТ ЖАРАЁНИ ИШТИРОКЧИЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ БАҲОЛАШ	182-193
09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>Boydadayev Abdurroxmon Tolibjon o'g'li</i>	
SHARQ VA G'ARB IRRATSIONAL FALSAFASIDA PANTEISTIK QARASHLARNING QIYOSIY TAHLILI (J.RUMIY VA F.NITSSHE FALSAFASI MISOLIDA)	194-200
<i>Xayridinov Abbosxon Anvarovich</i>	
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MA'NAVIY MA'RIFIY INQIROZLARNING OLDINI OLİSHDA MARKAZIY OSIYO QADRIYATLARINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI	201-205
<i>Quramboyev Alisher Maxsudovich</i>	
TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOIY ADOLAT TAMOYILLARINING AMAL QILISHI	206-211
<i>Jo'rayev Alisher Tulqinboyevich</i>	
JAMIYAT MILLIY ASOSLARINI MUSTAHKAMLASH – DAVLATNING USTUVOR MAQSADI	212-217
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i>	
ILMIY BAHS FENOMENINING MANTIQIY- GNOSEOLOGIK MAQOMINI O'RGANISHDA KONSEPTUAL-METODOLOGIK YONDOSHUV	218-224
<i>Пардаева Марҳабо Давлатовна</i>	
АЛИШЕР НАВОЙЙ АСАРЛАРИДА ИЛМГА ОИД ҚАРАШЛАРИНИНГ НАҚШБАНДИЯ ФОЯЛАРИ БИЛАН УЙҒУНЛИГИ	225-233
<i>Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich</i>	
NIKOH MUNOSABATLARINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	234-240
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i>	
DINIY MANBALARDA GO'ZALLIK TO'G'RISIDAGI FALSAFIY QARASHLAR	241-246
<i>Юсупова Феруза Зойировна</i>	
АХЛОҚИЙ ИДЕАЛ – ЁШЛАР МАҶНАВИЙ ЮҚСАЛИШИННИГ МЕЗОНИ	247-251
<i>Teshaboev Muhiddin Marifovich</i>	
IJTIMOIY ADOLATNI TA'MINLASHNING PRINSIPIAL MASALALARI	252-257

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Soatova Nodira Isomitdinovna</i>	
LIRO-EPIK ASARLARDA POETIK FIKRNING BADIY IFODASI	258-265
<i>Narmuratov Zayniddin Radjabovich</i>	
FRAZEOLOGIK BIRLIKLER LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA	266-269
<i>Yusupova Omina Muhammadzoir kizi</i>	
DIFFERENT CLASSIFICATION OF FAIRYTALE DISCOURSE IN WORLD AND UZBEK FOLKLORE	270-276
<i>Бозорова Хулкар Одинақуловна</i>	
РУССКИЙ ЯЗЫК КАК СОСТАВЛЯЮЩАЯ СОДЕРЖАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ	277-282
<i>Matyakubov Oybek Quralbayevich</i>	
KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA «KONSEPT» TUSHUNCHASI	283-288
<i>Фатуллаева Камола Рахматуллаевна</i>	
ТЕРМИНЛАРНИНГ БЕЛГИЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАСНИФИ	289-293
<i>Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna</i>	
O'ZBEK TILIDA KAUZATIV FE'LLARNING YASALISH USULLARI	294-299
<i>Xamzayev Otaxon Erkinovich</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KASB-HUNARGA OIDMAQOLLARNING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	300-305

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Абдурахманова Нодирахон</i>	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В СНГ	306-310
<i>Сафоева Садокат Мусоевна</i>	
ЭКОСИСТЕМА СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ РОЛЕЙ ЗАИНТЕРЕСОВАННЫХ СТОРОН В КОНТЕКСТЕ ГРАЖДАНСКОГО ПРАВА	311-320
<i>Абдуллаева Маликабону Эркин қизи</i>	
ХАЛҚ ТАЪЛИМИ СОҲАСИДА КОРРУПЦИЯНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШГА ОИД АЙРИМ ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИНИНГ ҚИЁСИЙ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ	321-330

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Zoirova Lola Xamidovna</i>	
TIBBIYOT OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA “INSON ORGANIZMINING RADIATSİYAGA SEZGİRLİĞİ” MAVZUSINI O'QTİSHDA RAQAMLI TEKNOLOGİYALARDAN	

FOYDALANISH	331-336
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloyevich</i>	
KOGNITIV SIFATLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI (MAKTAB PEDAGOG XODIMLARI MISOLIDA)	337-343
<i>Madaminov Azimbek Egamberganovich, Xalillayev O'ktam Sobir o'g'li</i>	
YOSH GANDBOLCHI DARVOZABONLARNI O'YIN TEXNIKASIGA O'RGATISH	344-349
<i>Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi</i>	
ANALYSIS OF THE POSITIVE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE MOTIVATION AND KNOWLEDGE OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATIONAL PROCESS	350-355
<i>Джумаева Хулкархан Мухаммаджоновна</i>	
ВНУТРЕННИЕ УГРОЗЫ, НЕГАТИВНО ВЛИЯЮЩИЕ НА ДУХОВНОСТЬ СТУДЕНТОВ..	356-361
<i>Islomova Madina Asqarovna</i>	
INTEGRATSIYALASHGAN SUN'IY INTELLEKT TOMONIDAN YARATILGAN CHATGPT BOT YORDAMIDA NEMIS TILI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	362-368
<i>Raxmatova Mexrinoz Majitovna</i>	
YOSHLAR MA'NAVIY SALOHIYATINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	369-373
<i>Абдукаюмова Наргиза Райимовна</i>	
ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ МАДАНИЙ-ИНТЕЛЛЕКТУАЛ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДИДАКТИК ШАРТЛАРИ	374-384
<i>Norboyev Farxod Chorshanbiyevich</i>	
KREATIVLIK VA INNOVATSIYA BORASIDA ZAMONAVIY NAZARIYALAR	385-390
<i>Borasheva Aybolgan</i>	
EXPLORING JAMES MCCROSKEY'S RESEARCH ON WILLINGNESS TO COMMUNICATE IN L1 CONTEXTS: IMPLICATIONS FOR LANGUAGE TEACHING AND LEARNING	391-398
<i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna</i>	
KOGNITIV TADQIQOTLARNING FANLARARO TUSHUNCHА SIFATIDAGI MOHIYATI VA MANTIQIY TAHLILI	399-409
<i>Boboraximov Sanjar Malikjanovich</i>	
MAKTABDA O'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYALASHNING ZARURATI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR	410-414
<i>Salimova Shahlo Sayfulloyevna</i>	
XAVFSIZ TA'LIM MUHITI MONITORINGINING AHAMIYATI	415-421

<i>Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi</i>	
METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF LOGICAL REASONING IN PRIMARY SCHOOL PUPILS	422-427
<i>Xamroyev Samijon Salimovich</i>	
SPORT TO'GARAKLARI ORQALI TALABALARING JISMONIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH KOMPONENTLARI	428-433
<i>Kattaeva Feruza Shakirovna</i>	
DEVELOPING STUDENTS SOCIO-CULTURAL COMPETENCE BY USING SOCIO CULTURAL DISCOURSE ANALYSIS METHOD	434-441
<i>G'ofurov Azizbek Umarjonovich</i>	
BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	442-447
<i>Abduraximova Umida Shuxratovna</i>	
BO'LAJAK TARJIMONLARNING LINGVOMADANIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	448-454
<i>Obidova Gulmira Kuzibaevna</i>	
INGLIZ TILINI O'RGANISH JARAYONIDA TEXNIKA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA EKOLOGIK MADANIYAT ASOSLARINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA INTERAKTIV METODLAR	455-460
<i>Axmadaliyeva Xosiyatposhsho Abduxayotovna</i>	
PROFESSIONAL TA'LIM YO'NALISHLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN O'QUVCHILARNING INGLIZ TILIDAN KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI AUTENTIK MATERIALLAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	461-469

Raxmatova Mexrinoz Majitovna
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi, PhD.

YOSHLAR MA'NAVIY SALOHIYATINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotasiya. Mazkur maqolada yoshlar ma'naviy salohiyatini o'rganishning nazariy-metodologik asoslarida ma'naviyat, yoshlar ma'naviyati, ma'naviy salohiyat kategoriyalari tahlil qilingan. Bugungi kunda mazkur metodologiyani o'rganishning zaruriyati yoritilgan. Amaliy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: milliy va umumbashariy qadriyat, ilmiy salohiyat, tarixiy sharoit, an'anaviy jamiyat, strategiya, yoshlar, ma'naviyat, ma'naviy salohiyat, ta'lim va tarbiya jarayoni, fuqarolik pozisiyasi.

Raxmatova Mexrinoz Majitovna
Teacher of Denov Institute of
Entrepreneurship and Pedagogy, PhD.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF STUDYING THE SPIRITUAL POTENTIAL OF YOUNG PEOPLE

Abstract. In this article, the categories of spirituality, youth spirituality, and spiritual potential are analyzed in the theoretical and methodological foundations of studying the spiritual potential of young people. Today, the need to study this methodology is highlighted. A practical conclusion and proposals have been developed.

Key words: national and universal value, scientific potential, historical conditions, traditional society, strategy, youth, spirituality, spiritual potential, education and training process, citizenship position.

Рахматова Мехриноз Мажитовна
Преподаватель Деновского института
предпринимательства и педагогики, PhD.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ ДУХОВНОГО ПОТЕНЦИАЛА МОЛОДЕЖИ

Аннотация. В данной статье анализируются категории духовности, духовности молодежи, духовного потенциала в теоретико-методологических основаниях изучения духовного потенциала молодежи. Сегодня подчеркивается необходимость изучения этой методологии. Разработан практический вывод и предложения.

Ключевые слова: национально-общечеловеческая ценность, научный потенциал, исторические условия, традиционное общество, стратегия, молодежь, духовность, духовный потенциал, воспитательно-воспитательный процесс, гражданская позиция.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I8Y2023N53>

Kirish. Bugun “Yangi O’zbekiston – yangicha dunyoqarash”ni shakllantirish va mustahkamlash uchun har bir fuqarodan, ayniqsa, yosh avlod vakillaridan alohida mas’uliyat, yuksaklikka da’vat etuvchi ma’naviy salohiyat talab etilmoqda. Ushbu salohiyatni har bir yosh avlod qalbida mustahkamlash dolzarb ahamiyatga ega. Prezident Shavkat Mirziyoyev bu xususda: “Sharq donishmandlari aytganidek, Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir! Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o’zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo’lish uzlusiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak”[1.12-13], deya ta’kidlaydi. Demak, ma’naviy vorisiylik, ma’naviy burch asosida yoshlarni tarbiyalash, ma’naviy zaiflik, ma’naviy tubanlik, ma’naviy qaramlikka qarshi kurashish, fuqarolik jamiyatini ma’naviyatini yangi bosqichga ko’tarish mamlakatimiz taraqqiyotining asosini tashkil etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yoshlar ma’naviy salohiyatini o’rganishning nazariy-metodologik asoslariga oid manbalar M.Nugayevning “Kachestvo sosialnogo potensiala regiona v politicheskoy i duxovnoy sferax”, R.Galeyevning “Duxovnyiy potensial kak obyekt issledovaniya i upravleniya”, I.Saifnazarovning “Ma’naviy barkamollik va siyosiy madaniyat”, M.Quronovning “Betakrorimsan, yagonasan, ona vatanim” asarlarida o’z ifodasini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolani tayyorlashda kompleks yondashuv, tizimlilik, umumlashtirish, analogiya kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Avvalo, qayd etib o’tish joizki, ma’naviyat, yoshlar ma’naviy salohiyatining muhim nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish masalasi bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. O’z o’rnida mamlakat va jamiyat hayotida ma’naviyatning rolini anglash uchun, avvalo, “ma’naviyat” atamasining mohiyati xususida to’xtalib o’tish maqsadga muvofiq. Chunki, ma’naviyat va ma’naviy salohiyat masalalariga xolisona, konkret sharoitni hisobga olib yondashish – yosh avlod vakillarini ma’naviy kamol toptirishning yangi usul va innovatsion yo’llarining ochilishiga sabab bo’ladi.

Mazmuni. Ma’naviyatning jamiyat va inson hayotidagi rolini aniqlashtirishda unga berilgan ta’riflarning mazmun va mohiyatini anglab yetish muhim o’rin tutadi. “Ma’naviyat” atamasi arabcha “ma’ni” yoki “ma’no” so’zları mazmunidan kelib chiqqan bo’lib, uning mazmunini ta’riflash borasida ko’plab faylasuflarning talqinlarini uchratish mumkin. Jumladan, “g’azal mulkining sultonı Alisher Navoiy o’z asarlarida odamlarni ikkiga, ya’ni – suvrat ahli va ma’ni ahliga bo’ladi. Yoki Mavlono Jaloliddin Rumiyning olti kitobdan iborat dunyoga mashhur asari aynan “Masnaviyi ma’naviy”, ya’ni “Ma’naviyat dostoni” deb nomlanadi”[2.80].

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg’ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iyomon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg’otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”[3.19], – deb ta’riflaydi. Uning nuqtai nazaricha, “xalq, millat o’z milliy ma’naviyatini yillar, asrlar davomida yuksaltirib, boyitib boradi. Chunki ma’naviyat qotib qolgan aqidalar yig’indisi emas, aksincha, doimiy harakatdagi uzlusiz jarayon bo’lib, taraqqiyot davom etar ekan, uning shiddatli yurishi tufayli ma’naviy hayot oldiga qo’yiladigan talablar ham muttasil paydo bo’laveradi”[4.171]. Birinchi Prezidentimizning ushbu qarashlaridan ma’naviyat falsafiy tushunchasi dinamik ravishda doimo o’zgaruvchi, rivojlanuvchi jarayon ekanligi yaqqol namoyon bo’ladi.

I.Saifnazarov “ma’naviyat – inson o’zligida aks etgan barcha xayrli, ezgu orzu-intilishlar mujassami. Ma’naviyat – ezguliklar manbai. U jaholatning ziddidir. Chunki jaholat barcha

yovuzliklar manbai”[5.14] deya ta’riflagan. Ushbu ta’rifda ko’proq ma’naviyatning botiniy jihatiga urg’u berilgan.

M.Quronov ma’naviyat to’g’risidagi o’z mulohazalarini bayon qilar ekan, jumladan, shunday yozadi: “Biz ikki renessansni ko’rgan, qurgan millatmiz. O’sha paytlarda ham iqtisodiyot rejali emas, bozor iqtisodiyoti edi. Ma’naviyatimiz kuchli edi. Demak, biz kuchli iqtisodiyot bilan kuchli ma’naviyatni birlashtirib, ikki marta yuksalib ko’rganmiz. “Yangi O’zbekiston = Kuchli iqtisodiyot + Kuchli ma’naviyat” formulasi ikki qudratli kuchni birlashtiradi. Mana shu ikki kuch, qudrat bizni Uchinchi Renessansga olib chiqadi”[6]. Mazkur ta’rifdan ma’naviyat – mamlakat taraqqiyoti va tamaddunini ta’min etuvchi beqiyos qudrat ekanligi oydinlashadi.

Soha olimlarining mazkur talqinlaridan ma’naviyat keng qamrovli falsafiy kategoriya sifatida insonni ruhiy poklikka chorlovchi, nojo’ya xatti-harakatlardan o’zini tiyishga undovchi, shaxsda yuksak axloqiy fazilatlarni kamol toptirishni o’zida mujassam etgan tushuncha ekanligini anglash mumkin. Demak, ma’naviyat serqirra, mazmunli va insondagi nozik xilqatni qamrab olgan falsafiy tushuncha.

Yuqoridagi ta’riflarni inkor etmagan holda biz ma’naviyat kategoriyasiga quyidagicha ta’rifni berishga jazm qildik: ma’naviyat – borliq, tabiat, jamiyat kabi uzlusiz harakatdagi jarayon, u inson fikri, tafakkuri, his-tuyg’ulari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, tarixiy va madaniy merosimizni mujassam etgan yuksak insoniy salohiyatdir.

Qayd etilganidek, bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar ma’naviy salohiyatini yuksaltirish – dolzarb vazifalardan biridir. Shu o’rinda, bizningcha, “Salohiyat o’zi nima?”, “Ma’naviy salohiyat tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?”, “Yoshlar ma’naviy salohiyati deganda biz nimani tushunamiz?” – kabi savollarga javob topish maqsadga muvofiq.

Mutaxassislarning qayd etishlaricha, “salohiyat, bu – ma’lum bir tarmoq yoki sohadagi barcha mavjud imkoniyatlar yig’indisi, keng ma’noda “zaxira” vositalari. Mohiyatan kengroq olib qaralsa, har qanday muammoni hal qilish, aniq maqsadga erishish uchun ishlatalishi mumkin bo’lgan manbalar, imkoniyatlar, vositalar, zaxiralar yoki muayyan shaxs, jamiyat, davlatning ma’lum bir sohadagi imkoniyatlaridir”[7].

Rossiyalik tadqiqotchilardan biri M.A. Nugayevning fikricha, “salohiyat tarkibi 5 ta kichik potensialdan iborat: innovatsion va ijodiy, kasbiy malaka, ma’naviy va axloqiy, intellektual, psixosomatik”[8.139].

Bizningcha, salohiyat tarkibini bunday tasniflash shaklan maqsadga muvofiq, biroq mohiyatan olib qaraganda bu tasnif uning butun mazmuni va imkoniyatlarini chegaralab qo’yishi mumkin. Chunki shaxs salohiyati, xususan, uning ma’naviy salohiyati ham moddiy, ham ma’naviy jihatlar bilan chambarchas bog’liq.

Salohiyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri, bu – ma’naviy salohiyatdir. Ma’naviy salohiyat juda keng va serqirra tushuncha bo’lib, zamонавија jamiyatda butun bir majmuani tashkil etadi. Uning tarkibiga nafaqat adabiyot, san’at va fan, balki ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotning boshqa sohalari ham kiradi.

Rossiyalik tadqiqotchi M.Xristenkoning qayd etishicha, “ma’naviy salohiyat dunyonи va unga insoniy munosabatni anglash uchun asos bo’lib xizmat qiladigan, shu bilan birga insoniyat voqeliklarini aks ettiruvchi oyna”[9.31].

Yoshlar ma’naviy salohiyatini yuksaltirishga bo’lgan ehtiyoj dolzarblashib, ma’naviy tiklanish, ma’naviy yuksalish ehtiyojlarning mazmun va darajasi bilan aloqador bo’lib

qolmoqda. Jamiyat taraqqiyotini jadallashtiruvchi kuch – iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy taraqqiyot zaruriyatlari bilan bog'langan, ma'naviyat bilan uzviy aloqador bo'lgan zaruratdir.

Yuqorida keltirib o'tilgan ilmiy-nazariy qarashlar tahlili "ma'naviy salohiyat" tushunchasini quyidagicha ta'riflash imkonini berdi: ma'naviy salohiyat – shaxsning ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy parametrlariga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi, uni ijodkorlik, izlanish va ezgu maqsadlar sari yetaklovchi, jamiyat hayotining moddiy va ma'naviy sohalarini rivojlantirishga ilhomlantiruvchi salohiyatidir. O'z o'rnida, yoshlar ma'naviy salohiyati ularning ijtimoiy borliqqa, aniq tarixiy davrga, jamiyatdagi muayyan bosqichga nisbatan faol pozisiyaga ega ekanligini ifoda etadi.

Ma'naviyat tarkibiga yuksak fazilatlar, xislatlar, mo'ljal va mezonlar kirsa, ma'naviy salohiyat tarkibiga shaxsning intilishlari, izlanishlari, ma'naviy mezonlarga amal qilgan holda amalga oshiradigan xatti-harakatlari kiradi.

Yoshlar ma'naviy salohiyatining yuksalishi jamiyatni yuksalish tomonga yetaklaydi, jamiyatda shakllangan yangicha ma'naviy muhit natijasida yangicha dunyoqarash vujudga keladi. Demak, yoshlar ma'naviy saviyasini shakllantirishning birinchi sharti – barcha yoshlarga berilgan e'tibor orqali bir tomonidan shaxs dunyoqarashini yangilasa, ikkinchi tomonidan, jamiyatda ma'naviy muhit yangilanadi. Uchinchidan, yoshlar ma'naviy salohiyatini rivojlantirish uchun muhim bo'lgan omillardan biri bu – ularda sog'lom tafakkuriy ehtiyojning mavjudligidir.

Bizningcha, bunday vaziyatda biz ikki jihatga e'tibor qaratmog'imiz zarur:

Birinchidan, yoshlar qalbi va ongida o'zining "Men"ini topishga undash lozim. Shaxsda uning loqaydlik va beparvolik, yon atrofdagi voqeа-hodisalarga o'zining mustaqil fikriga yondashmasligi, e'tiborsizligi kabi qator jihatlarni bartaraf etish yo'li bilan ushbu vazifani bajarish mumkin.

Ikkinchidan, yoshlarda sog'lom dunyoqarashni shakllantirish davlat, jamiyat tomonidan olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar bilan chambarchas bog'liq. Agar yoshlar ushbu islohotlar negizida tashabbusni sezadigan bo'lsa, unda yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksaltirish jarayoni yuqori darajada bo'ladi.

Qayd etilganidek, yoshlarning ma'naviy darajasi ularning manfaatlari hamda ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liq. O'z o'rnida yoshlar ehtiyojlarini moddiy va ma'naviy manfaatlarga bo'lish mumkin: Ma'naviy manfaatlari, o'z navbatida, siyosiy, ruhiy, axloqiy va boshqa turlarga bo'linadi.

Demak, yoshlar qanchalik o'z hayotiy manfaatlari va faolliklarini anglab yetishsa, ularni real voqelikka aylantirish uchun shunchalik qulay shart-sharoit yuzaga keladi. Uni to'g'ri anglamaslik esa, yoshlar faolligini so'ndiradi hamda yoshlarning o'z manfaatlارiga zid bo'lgan holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Yoshlar ma'naviy salohiyatining yuqori darajada bo'lishida quyidagilarga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi:

- fikrlarni to'g'ri aks ettirish;
- yuqori ma'naviy salohiyat, ijodkorlik haqida o'ylashga e'tibor berish;
- "past", noloyiq fikr va harakatlardan qochish;
- yuqori axloqiy fazilatlarni va ularning mazmunini o'zlashtirish;
- salbiy qusur va his-tuyg'ulardan xoli bo'lish.

Xulosa va takliflar. Bizningcha, turli salbiy holatlarning oldini olish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini oshirish, ma'naviy tahdidlarga qarshi kurash, yoshlarning mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ularning ma'naviy salohiyatini yuksaltirishda davlat organlari va fuqarolik jamiyatni institutlari bilan hamkorlikda quyidagicha islohotlar olib borilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

oila, mahalla, ta'lif muassasalari va siyosiy institutlar hamkorligida jamiyat ma'naviy muhitini o'rganish va ularning yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksaltirishdagi faoliyatini yo'lga qo'yish, bunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish yuqori samaralar berishi mumkin;

yoshlarning ijtimoiy-ma'naviy hayotida faol fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish hamda siyosiy faolligini yuksaltirishda qabul qilinayotgan davlat dasturlari, qonun va qonun osti hujjatlarda konkret belgilangan davlat talablari hamda vazifalarni namunali liderlar, mas'ul mansabdorlar, shuningdek, jamiyatimizning barcha qatlami tomonidan shaxsiy ibrat targ'ibot tamoyili asosida amalga oshirish darkor.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. – Toshkent: Tasvir, 2020. –B.12-13.
2. Quronov M. Betakrorimsan, yagonasan, ona vatanim, O'zbekistonim. – Toshkent: Ma'naviyat, 2015. –B.80.
3. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013. –B.19.
4. O'sha manba. –B.171.
5. Саифназаров И. Маънавий баркамоллик ва сиёсий маданият. – Тошкент: Шарқ, 2001. –Б.14.
6. Куронов М.Одамийлик мафкураси // Янги Ўзбекистон, 2021 йил 30 январь, № 21.
7. Современная энциклопедия [Электронный ресурс] // Академик. Режим доступа // http://dic.academic.ru/dic.nsf/enc_1p/39354.
8. Нуғаев М. Качество социального потенциала региона в политической и духовной сферах (на материалах РТ). Наб.Челны: Ред.-изд.отдел НОУ ВПО Камский институт, 2008. –С.139.
9. Христенко М. Духовный потенциал личности: проблемы актуализации: дис. ... канд. филос. наук. Волгоград, 2003. –С.31.
10. Sobirovich T. B. National and universal principles of democracy //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 12. – №. 1. – C. 334-338.
11. Sobirovich T. B. The implementation of human indicator reforms in Uzbekistan //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 9. – C. 197-202.
12. Sobirovich T. B. Strategy of Renewal of National Spirituality of Uzbekistan //International Journal on Integrated Education. – 2020. – T. 3. – №. 8. – C. 122-126.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой
тумани, Кичик Бешёғоч қўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).